Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 54-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATGA BERILGAN IMTIYOZLAR

MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
E-mail: misirovasliddin@gmil.com
AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O'G'LI
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
E-mail: azamatabdullayev10112007@gmail.com
XASANOV BEHRUZ MA'MURJON O'G'LI
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
E-mail: vevxfx@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari va eksport-import bilan shug'ullanuvchi korxonalarga berilayotgan imtiyozlar, ularning iqtisodiy ahamiyati hamda amaliy samaradorligi yoritilgan. Xususan, soliq va bojxona imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy rag'batlantirish choralari hamda xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur imtiyozlarning korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va mamlakat investitsion jozibadorligini mustahkamlashdagi o'rni ko'rib chiqilgan.
Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, soliq imtiyozlari, bojxona imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik, investitsiya, moliyaviy rag'batlantirish, xalqaro savdo, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье рассматриваются льготы, предоставляемые субъектам предпринимательства и предприятиям, занимающимся экспортно-импортной деятельностью, в целях развития внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан. Анализируются экономическое значение и практическая эффективность налоговых и таможенных льгот, механизмов поддержки экспорта, мер финансового стимулирования, а также возможностей выхода на зарубежные рынки. Особое внимание уделяется роли данных льгот в повышении конкурентоспособности предприятий, расширении экспортного потенциала и укреплении инвестиционной привлекательности страны.
Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, налоговые льготы, таможенные льготы, поддержка экспорта, предпринимательство, инвестиции, финансовое стимулирование, международная торговля, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the incentives provided to business entities and enterprises engaged in export-import operations to promote foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the economic significance and practical effectiveness of tax and customs incentives, export support mechanisms, financial incentives, and opportunities for entering foreign markets. Particular attention is paid to the role of these incentives in improving business competitiveness, expanding export potential, and strengthening the country's investment attractiveness.
Keywords: foreign economic activity, export, import, tax incentives, customs incentives, export support, entrepreneurship, investment, financial incentives, international trade, competitiveness.

KIRISH

Bugungi globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashning

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun turli imtiyoz va yengilliklar joriy etilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlar, avvalo, eksport va import operatsiyalarini rag‘batlantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda xorijiy bozorlarga chiqishini yengillashtirishga qaratilgan. Bunday imtiyozlar tarkibiga soliq va bojxona yengilliklari, ayrim tovarlarni olib kirishda bojxona to‘lovlari bo‘yicha beriladigan imtiyozlar, eksportchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit va sug‘urta mexanizmlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Eksport hajmini oshirish, mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, import tarkibini takomillashtirish va ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish maqsadida tegishli iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, berilayotgan imtiyozlarning korxonalar faoliyatiga ta’sirini baholash, ulardan foydalanish samaradorligini o‘rganish va mavjud muammolarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarning iqtisodiy mohiyati va samaradorligini o‘rganishda klassik iqtisodiy nazariyalar, zamonaviy xalqaro savdo tadqiqotlari hamda soliq siyosatiga oid ilmiy qarashlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, Adam Smitning mutlaq ustunlik va David Rikardoning qiyosiy ustunlik nazariyalari xalqaro savdoning iqtisodiy asoslarini tushuntiradi. Ushbu nazariyalarga ko‘ra, mamlakatlar o‘zida samarali ishlab chiqariladigan mahsulotlarga ixtisoslashish va ularni eksport qilish orqali iqtisodiy manfaatga erishadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan eksportchi korxonalarga yaratiladigan soliq va bojxona yengilliklari milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi raqobat imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda soliq mexanizmining eksport-import operatsiyalariga ta’siri alohida o‘rganilgan. Jumladan, “Tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish” nomli ilmiy tadqiqotda tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy mazmuni, samarali soliq mexanizmini shakllantirish shartlari, xorijiy tajriba va O‘zbekistondagi amaldagi soliqqa tortish tartibi tahlil qilingan. Tadqiqotda eksport-import operatsiyalaridan undiriladigan soliqlar va to‘lovlarning fiskal ahamiyati hamda soliq imtiyozlari iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Bu yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarni nafaqat korxona manfaatlari, balki davlat budjeti va iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Roland B. Davies va Arman Mazhikeyev (2019) maxsus iqtisodiy zonalarning korxonalar eksport faoliyatiga ta’sirini Afrika va Osiyo mamlakatlari misolida empirik tahlil qilgan. Mualliflar tadqiqotida maxsus iqtisodiy zonada faoliyat yuritish korxonalarning eksport qilish ehtimoli va eksport hajmiga ta’sir etishi aniqlangan. Xususan, ochiq iqtisodiyotga ega mamlakatlarda maxsus iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarning eksport qilish ehtimoli boshqa korxonalarga nisbatan 25 foiz yuqori bo‘lgan. Biroq tadqiqotchilar imtiyozlarning samarasi mamlakatdagi iqtisodiy muhit va savdo to‘siqlariga ham bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ushbu ilmiy qarash tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarni mamlakatning umumiy iqtisodiy siyosati bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

OECD tomonidan tayyorlangan “O‘zbekistonda barqaror investitsiya siyosatini isloh qilish yo‘l xaritasi” tadqiqotida korporativ foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati va investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq imtiyozlari investorlarni jalb qilish vositasi bo‘lishi mumkinligi, biroq ularning o‘zi investitsiya qarorlarini belgilovchi yagona omil emasligi qayd etiladi. Infratuzilma, boshqaruv sifati, huquqiy barqarorlik va ichki iqtisodiyot bilan integratsiya ham muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan. Bu yondashuv O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatga berilayotgan imtiyozlarni baholashda ularning korxona faoliyatiga real ta’sirini ham hisobga olish lozimligini anglatadi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2026-yilda e’lon qilingan “Maxsus iqtisodiy zonalar va ularni soliqqa tortish” nomli tahliliy materialida turli mamlakatlarda maxsus iqtisodiy zonalarga beriladigan soliq va bojxona imtiyozlari o‘rganilgan. Unda imtiyozlarning investitsiyalarni jalb qilishdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda, davlat budjeti daromadlariga ta’siri ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda imtiyozlarni aniq maqsadga yo‘naltirish, muddat bilan cheklash va muntazam baholab borish zarurligi ta’kidlangan. Ushbu fikr tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlar natijadorligini baholashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Shuningdek, Baxriddin Abdurahmonovning “Hududlarda rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash” nomli tadqiqotida soliq imtiyozlarining budjet, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash masalalari yoritilgan. Muallif imtiyozlarni baholashda budjet daromadlaridagi yo‘qotishlar bilan korxonalar va hududlar oladigan iqtisodiy foydani o‘zaro taqqoslash zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarning samaradorligini faqat eksport hajmining o‘sishi bilan emas, balki yaratilgan ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalar dinamikasi orqali ham baholash mumkinligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlar eksportni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Biroq imtiyozlarning natijasi ularni qo‘llash mexanizmi, mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma va nazorat tizimining

samaradorligiga bog‘liq. Mavjud tadqiqotlarda soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va maxsus iqtisodiy zonalar alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning eksport-import bilan shug‘ullanuvchi korxonalar faoliyatiga kompleks ta’sirini birgalikda baholash masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratilib, O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlarning iqtisodiy ahamiyati va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga berilayotgan soliq, bojxona va moliyaviy imtiyozlarni o‘rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini mahalliy va xorijiy olimlarning tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport-import operatsiyalari, soliq siyosati, bojxona preferensiyalari hamda investitsiyalarni rag‘batlantirishga oid ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqot davomida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, soliq va bojxona qonunchiligi, eksport-import operatsiyalariga taqdim etiladigan imtiyozlar hamda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga oid ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi, ularning o‘sish sur’atlari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar orqali tashqi iqtisodiy faoliyatga berilayotgan imtiyozlarning iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bunda eksportni rag‘batlantirish, import qilinadigan ishlab chiqarish uskunalari va xomashyoga nisbatan qo‘llaniladigan bojxona preferensiyalari, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga beriladigan yengilliklar hamda investitsion imtiyozlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi. Natijada milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llanilayotgan imtiyozlarning afzalliklari va takomillashtirish talab etiladigan jihatlari aniqlashga harakat qilindi.

Statistik tahlil usuli orqali eksport va import hajmining o‘zgarishi, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi hamda tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi o‘rganildi. Olingan statistik ma’lumotlar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, imtiyozlarning samaradorligini aniqlashda eksport hajmining o‘sishi, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi va korxonalar raqobatbardoshligining ortishi kabi mezonlardan foydalanish nazarda tutildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, eksport hajmini oshirish va mahalliy korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda eksport-import operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarga turli soliq, bojxona va moliyaviy imtiyozlar taqdim etilmoqda. Ushbu imtiyozlar korxonalarning xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni jalb qilish va xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan asosiy imtiyozlar va ularning iqtisodiy ahamiyati

Imtiyoz turlari	Mazmuni	Kutiladigan iqtisodiy natija
Soliq imtiyozlari	Qonunchilikda belgilangan soliq yengilliklari	Korxonalar xarajatlarini kamaytirish
QQS bo‘yicha imtiyozlar	Eksport operatsiyalariga qonunchilik asosida nol stavka qo‘llash	Eksport mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish
Bojxona imtiyozlari	Ayrim tovarlar uchun bojxona to‘lovlari bo‘yicha preferensiyalar	Import xarajatlarini kamaytirish
Investitsion imtiyozlar	Belgilangan shartlar asosida investorlar uchun yengilliklar	Yangi investitsiyalarni jalb qilish
Maxsus iqtisodiy zonalar imtiyozlari	Zona ishtirokchilariga qonunchilik asosida beriladigan yengilliklar	Ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish
Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	Eksport faoliyatini moliyalashtirish va rag‘batlantirish mexanizmlari	Korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish

Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlar mazmuni va ta’sir doirasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Soliq imtiyozlari korxonalarning moliyaviy yukini kamaytirishga xizmat qilsa, bojxona preferensiyalari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xomashyo, materiallar va texnologik uskunalarni olib kirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Maxsus iqtisodiy zonalardagi imtiyozlar esa investitsion loyihalarni amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo‘naltiriladi.

Soliq imtiyozlarining tashqi iqtisodiy faoliyatga ta’siri.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda soliq imtiyozlari korxonalarni eksport faoliyatiga jalb etishning muhim iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, eksport operatsiyalariga nisbatan qo‘llaniladigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining nol stavkasi eksport qiluvchi korxonalarning soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda nol stavka qo‘llanishi eksport operatsiyasi bo‘yicha tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi va soliq qonunchiligi talablariga rioya qilinishi lozim. Mazkur mexanizm eksport qiluvchi korxonalarning aylanma mablag‘laridan samarali foydalanishiga yordam beradi. Shuningdek, eksport operatsiyalari bo‘yicha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ini qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olish yoki qaytarish imkoniyati korxonalarning moliyaviy resurslarini kengaytiradi. Bundan tashqari, ayrim faoliyat turlari va ishlab chiqarish yo‘nalishlari uchun belgilangan soliq imtiyozlari korxonalarning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bunday imtiyozlardan foydalanishda

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ularning amal qilish muddati, qo‘llash shartlari va maqsadli yo‘nalishlariga qat’iy rioya etish talab etiladi.

Bojxona imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi.

Bojxona imtiyozlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishning yana bir muhim yo‘nalishidir. Import qilinadigan ayrim xomashyo, materiallar, ishlab chiqarish uskunalari va texnologik vositalarga nisbatan belgilangan bojxona preferensiyalari korxonalarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Masalan, xorijdan zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarini olib kiruvchi korxona qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga javob bergan taqdirda tegishli bojxona imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini yaxshilash va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlaridan foydalanishda tovarlarning to‘g‘ri tasniflanishi, bojxona qiymatining aniqlanishi va tegishli hujjatlarning rasmiylashtirilishi muhim hisoblanadi. Imtiyozlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi korxonalarda qo‘shimcha moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maxsus iqtisodiy zonalarga beriladigan imtiyozlar.

Maxsus iqtisodiy zonalar tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar qonunchilikda belgilangan shartlar asosida soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalanishlari mumkin. Maxsus iqtisodiy zonalarning asosiy iqtisodiy afzalligi shundaki, ular investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga yordam beradi. Bunda ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjudligi, bojxona tartiblarining qulayligi, soliq yengilliklari va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlari muhim omillar hisoblanadi. Xalqaro tajribada ham maxsus iqtisodiy zonalarning eksport faoliyatiga ijobiy ta’siri qayd etilgan. Biroq bunday zonalarning samaradorligi faqat imtiyozlar bilan emas, balki infratuzilma, transport-logistika tizimi, huquqiy barqarorlik va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Tadqiqot natijalari asosida tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlardan foydalanish jarayonida quyidagi muammolar mavjudligi kuzatildi:

1. Axborot yetishmasligi. Ayrim tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatiga tegishli soliq va bojxona imtiyozlari, ulardan foydalanish shartlari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin.

2. Hujjatlarni rasmiylashtirishdagi murakkabliklar. Eksport-import operatsiyalarida shartnomalar, hisobvaraq-fakturalar, bojxona deklaratsiyalari va boshqa hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish talab etiladi.

3. Imtiyozlar samaradorligini baholashdagi kamchiliklar. Ayrim hollarda imtiyozlarning korxona eksport hajmi, ishlab chiqarish quvvati va moliyaviy natijalariga ta’siri yetarlicha tahlil qilinmaydi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

4. Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi. Imtiyozlar bo‘yicha ma’lumotlarni yagona elektron tizimda jamlash va ulardan foydalanish jarayonlarini soddalashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatga oid soliq va bojxona imtiyozlari bo‘yicha yagona elektron axborot bazasini rivojlantirish.
- Eksport-import bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar uchun imtiyozlardan foydalanish bo‘yicha tushuntirish va maslahat xizmatlarini kengaytirish.
- Imtiyozlardan foydalanish natijalarini eksport hajmi, investitsiya miqdori, yangi ish o‘rinlari va ishlab chiqarish o‘sishi orqali baholash.
- Bojxona va soliq organlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvini takomillashtirish.
- Imtiyozlarni korxonalarning real iqtisodiy ehtiyojlari va eksport salohiyatidan kelib chiqib maqsadli yo‘naltirish.
- Imtiyozlardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish bilan birga, qonunchilikka rioya qilayotgan korxonalar uchun ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, soliq va bojxona imtiyozlari, investitsion preferensiyalar hamda eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari korxonalarning iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarning samaradorligini faqat eksport hajmining o‘sishi bilan baholash yetarli emas. Bunda jalb qilingan investitsiyalar miqdori, ishlab chiqarish hajmi, yaratilgan yangi ish o‘rinlari, mahsulot tannarxining kamayishi va korxonalarning moliyaviy natijalari ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli imtiyozlardan foydalanish natijalarini muntazam monitoring qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish zarur.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining mavjud imtiyozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish hamda davlat organlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa imtiyozlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ortiqcha ma’muriy xarajatlarni kamaytirish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratishga yordam beradi.

Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatga beriladigan imtiyozlarni maqsadli va samarali qo‘llash O‘zbekistonning xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, investitsion jozibadorligini oshirish hamda milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi mavqeyini

mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois imtiyozlarni takomillashtirishda xalqaro tajribani milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish, ularning natijadorligini muntazam baholash va korxonalarni uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr, O‘RQ-599-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar, O‘RQ-400-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 17-fevral, O‘RQ-604-son.
5. Davies, R. B., Mazhikeyev, A. (2019). The Impact of Special Economic Zones on Exporting Behavior. Review of Economic Analysis, 11(1). https://doi.org/10.15353/rea.v11i1.1520
6. OECD. (2025). Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. OECD Publishing.
7. International Monetary Fund. (2026). Special Economic Zones and How to Tax Them. IMF.
8. Abdurahmonov, B. (2026). Hududlarda rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.
9. Kulimova, X. M. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda eksportning ahamiyati. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.
10. Pardaev, T., Tursinova, S. (2024). Bojxona to‘lovlaridan imtiyoz va preferensiyalar qo‘llashni takomillashtirish yo‘llari.
11. Meliyev, A. M., Haydarov, I. M. Tashqi iqtisodiy faoliyatga davlat tomonidan ta’sir etishning moliyaviy usullari va vositalari.
12. Mahmudova, S. (2025). O‘zbekiston eksport salohiyatini soliqlar yordamida rag‘batlantirish.
13. Xusanov, D., Djurayeva, I. (2024). EIZ hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish.
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi statistik ma’lumotlari.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy